

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov	
O'zbekistonda <i>Berberis integerrima</i> bunge tabiiy resurslarining zamonaviy holati	132
M.N.Valiyeva, G.S.Mirzayeva, D.M.Musayev	
O'zbekistonda Reduviidae oilasiga mansub (Heteroptera) yirtqich qandalalarning o'rjanilish holati	142
M.B.Zohidova, G.M.Zokirova	
Xanthogaleruca luteola (Müller, 1766) barg qo'ng'izining mahalliy ekotizimlardagi tarqalishi va avlod almashinushi.....	148
M.X.Akbarova, Z.A.Yusupova	
Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi shonli tarixi.....	153
O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev	
Shohimardonsov va So'x daryolarida tarqalgan <i>Schizothorax eurystomus</i> Kessler, 1872 morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyoziy tahlili	160
M.T.Izag'aliyev, G.Yuldashev, B.M.Qo'chqorov, I.M.Aktamov	
Tipik bo'z tuproqlar ekologik transformatsiyasiga sement sanotining ta'siri	167
D.T.Xo'jayev	
<i>Nerium oleander</i> L. "Hardy red" navining laboratoriya sharoitida urug' unuvchanlig	173
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov	
G'arbiy Farg'ona hududidagi Heteroptera: Pentatomidea qandalalarining biotsenotik aloqlari va agroekotizmlardagi ahamiyati	177
D.B.Fayziyeva B.M.Sheraliyev	
Qoratog' va to'palang daryolarida tarqalgan <i>Iskandaria pardalis</i> (Turdakov, 1941) morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyoziy tahlili	184
M.R.Shermatov, D.A.Almatova, B.D.Abdikaxorov	
<i>Cidaria distinctata</i> Staudinger, 1892 (Lepidoptera: geometridae, larentiinae)ning Farg'ona vodiysida qayd etilishiga oid.....	190
Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov	
<i>Acyrtosiphon pisum</i> (Harris, 1776) shirasining morfo- ekologik xususiyatlari (Shimoliy Farg'ona misolida)	194
O.T.Sobirov, X.R.Kaxxorova, S.A.Tojimamatova, O'.Sh.Turg'unova	
<i>Lepidosaphes</i> avlodni bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili	201
F.N.Mingboyev, S.M.Xaydarov, M.V.Obidov	
Mikrosuvo'tlari uchun ozuqa muhitini tayyorlash texnologiyasi (<i>Ankistrodesmus</i> misolida).....	211
D.R.Botirova, M.V.Obidov, D.R.Egamberdiyeva	
Evaluating substrate types for enhanced hydroponic strawberry yield and quality.....	216

QISHLOQ XO'JALIGI

G'.Yuldashev, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov	
Sho'rxoklarning singdirish sig'imi va kationlar tarkibining o'zgarishi	221
B.P.Rasulzoda, Z.A.Джаббаров	
Взаимоотношение длины междуузлий, число стеблевых узлов и продуктивность колоса у сортов мягкой пшеницы	226
O.X.Sindarov	
Issiqxona sharoitida turli xususiyatlarga ega plyonkalarning qulupnay navlari barglaridagi biologik o'zgarishlarga ta'siri	232

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, D.X.Yuldasheva	
Farg'ona viloyatida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari	237
E.G'.Maxkamov	
Hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni geoekologik jihatdan baholash usullari	246
S.M.Xursanov	
Surxondaryo viloyatida aholi tashqi migratsiyaning hududiy tarkibi	249
Z.N.Tojieva, K.B.Omanova	
Jizzax viloyati mehnat migratsiyasining ba'zi jihatlari	257



УО'К: 314.15+911.3+304.6

SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI TASHQI MIGRATSİYANING HUDUDIY TARKIBI

РЕГИОНАЛЬНАЯ СТРУКТУРА ИНОСТРАННОЙ МИГРАЦИИ В РЕГИОНЕ
SURKHANDARYA

REGIONAL STRUCTURE OF FOREIGN MIGRATION IN SURKHANDARYA REGION

Xursanov Sadreddin Mo'min o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada aholining migratsiya jarayoni va uning hududiy tarkibi Surxondaryo viloyati bo'yicha o'rganilib tahlil etilgan shuningdek migratsiya jarayonini o'rganishning nazari asoslariga haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Xususan Surxondaryo viloyatida aholining tashqi migratsiyasining shakllanishi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek ushbu tadqiqot ishida migratsiya jarayonini xorij va o'zbek olimlari tomonidan o'rganilishining qisqacha bayoni keltirilgan.

Аннотация

В данной статье изучается и анализируется процесс миграции населения и его территориальный состав в Сурхандарьинской области, а также излагаются идеи и комментарии относительно теоретических основ изучения процесса миграции. В частности, рассмотрены формирование внешней миграции населения в Сурхандарьинской области и факторы, влияющие на ее развитие. В исследовании также представлен краткий обзор изучения процесса миграции зарубежными и узбекскими учеными.

Abstract

This article studies and analyzes the migration process of the population and its territorial composition in the Surkhandarya region, as well as presents ideas and comments on the theoretical foundations of studying the migration process. In particular, the formation of external migration of the population in the Surkhandarya region and the factors influencing its development are discussed. Also, this research work provides a brief description of the study of the migration process by foreign and Uzbek scientists.

Kalit so'zlar: migratsiya, migrant, tashqi migratsiya, mehnat migrantlari, xalqaro migratsiya, emmigratsiya, immigratsiya, omillar, migratsiya dinamikasi.

Ключевые слова: миграция, мигрант, внешняя миграция, трудовые мигранты, международная миграция, эмиграция, иммиграция, факторы, динамика миграции.

Key words: migration, migrant, external migration, labor migrants, international migration, emigration, immigration, factors, migration dynamics.

KIRISH

Surxondaryo viloyati aholisining migratsion harakatlari xususan aholining tashqi migratsiyadagi ishtiroki viloyatning tumanlar va shaharlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Malumki Surxondaryo viloyati mamlakatimizda eng tog'li viloyatlardan biri hisoblanadi demak bunday murakkab relyef shakli ham aholining hududiy joylashuvida katta farqlarni yuzaga keltiradi. Viloyat hududi bo'ylab va tumanlari bo'yicha aholi joylashuvida katta farqlar ko'zga tashlanadi. Aholisi eng ko'p bo'lgan Denov tumanida 2024-yil hisobi bo'yicha 425 ming aholi istiqomat qilsa aholisi eng kam bo'lgan tuman yangi tashkil etilgan Bandixon tumani bo'lib 84 ming aholiga ega taqqoslash uchun o'tadagi farq 5 martadan ko'proqni tashkil etadi. Surxondaryo viloyatida aholi joylashuvini eng avvalo Termiz-Sariosiyo yo'nalishi bo'ylab o'tgan temir yo'l va avtomobil yo'llari ham Surxondaryo daryosi uning irmoqlari va Sheraboddaryo havzalari belgilab beradi. Viloyatda aholining hududiy joylashuvi aholining bandlik tarmoqlarini ham keltirib chiqaradi. Malumki Surxondaryo viloyati mamlakatimizda eng tog'li hududlardan biri shu bilan birgalikda viloyat aholisi tashqi migratsiyada ham ancha faol bo'lgan viloyatlardan hisoblanadi shunday ekan bu ikki hodisani o'zaro bog'liqligi mavjud bu aynan aholining bandlik sohalari bilan bog'liq hisoblanadi.

Viloyatda relyef balandlashib borgan sari xo'jalik tarmoqlarining turi ham almashinib o'zgarib boradi masalan tekislik hududlarda joylashgan Jarqo'rg'on, Angor, Qizriq, Bandixon va Termiz tumanlarining xo'jalik faoliyati bilan tog' va tog' oldi hududlarda joylashgan Boysun, Sarosiy, Uzun hamda Sherabod, Oltinsoy va Denov tumanlarining katta qismi tumanlarining xo'jalik faoliyatida katta farqlar ko'zga tashlanadi. Bunday hodisani bazan bir tumanning o'zida ham uchratish mumkin viloyatda deyarli barcha relyef shakllarida joylashgan tuman bu Oltinosy tumani hisoblanadi bunda ham demak yuqorida takidlab o'tilganidek aholi joylashuvining balandlik mintaqalari bo'ylab o'zgarishi xo'jalik faoliyati o'zgarishini ham keltirib chiqaradi. Bunda demak tekislik hududlarda asosan sug'orma dehqonchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa tog' oldi tog'li tumanlarda asosan bog'dorchilik va chorvachilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan hisoblanadi. Tekislik rayonlarda ishlab chiqarish obektlari sug'orma dehqonchilik bilan birga yaxshi rivojlanganligi ayniqsa yengil va oziq ovqat sanoatlari ko'plab aholining ushbu tarmoqlarda band bo'lishi ta'minlab bergan bo'lsa aksincha tog'li rayonlarda birinchidan sug'orma dehqonchilikka sharoit yo'q bo'lsa ikkinchidan ishlab chiqarish obektlari, zavod va fabrikalar umuman yo'q yoki juda ham kam natijada tekislik hududlar aholisiga nisbatan tog'li hududlarda ishsizlik koeffitsienti yuqori bo'lishiga zamin yaratadi. Bunday yuqori darajadagi ishsizlik natijasida aholining bir qismi boshqa hududlarga doimiy yoki vaqtinchalik ish izlab migratsion harakatlarni amalga oshiradi. Viloyatda aholining tashqi migratsiyasi hududiy jihatdan bugungi kunda kattagina ichki tafovutlarga va ega ekan. Shuni alohida takidlash joizki viloyat aholisining tashqi migratsiyasi hududiy jihatdan bugunga qadar o'r ganlimagan. Shunday ekan viloyatda aholining tashqi migratsiyasining hududiy tarkibini tadqiq etish fikrimizcha dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mintaqalarda migratsiya jarayonining shakllanishi va rivojlanishi hamda unga tasir etuvchi omillarni qator xorij olimlari, jumladan T. Bauer, R. Bilsborrou, V. Bonning, I. Valtershteyn, V. Zelinski, K. Zimmerman, A. Zlotnik, A. Zolberg, D. Massey, E. Ravenshtein, P. Stoker, J. Saymon, O. Stark, M. Todaro, A. Xarrison va boshqalarning asarlarida o'rganilgan.

Migratsiya jarayoni xususan tashqi migratsiya bugungi kunda jahan mamlakatlarini birlashtirib turuvchi omillardan eng muhim bo'lib bormoqda shuning uchun ham bugungi kunda migratsiya jarayoni uni keltirib chiqaruvchi sabab va omillar hamda uning oqibatlari deyarli barcha mamlakat olimlari tomonidan chuqur o'rganilib tahvil qilinmoqda. Xitoyda 1996-2010-yillarda davomida ichki migratsyaning demografik jarayonlarga tasiri Rufey Guo, Junsen Chjan, Minxay Chjoular tomonidan o'rganilgan[10]. Malumki Xitoy jahondagi eng katta ichki migratsiyaga ega mamlakat hisoblanadi ushbu davlatda har yili 100 millionlab kishilar qishloqlardan shaharlarga ish izlab ko'chib borishadi tabiiyki aholining doimiy yashash joyi o'zgargishi bilan uning demografik jarayonlarga bo'lgan munosabati ham boshqacha bo'ladi chunki tashqi muhit ham o'z tasirini o'tkazishi mumkin.

Sobiq ittifoqi olimlaridan D.I. Volobieva, V.G. Magnevskiy, V.G. Nishtkim, M.I. Rukkim, G.B. Topilin, E.V. Turukanovaning tadqiqotlari migratsiya jarayoning turli masalalariga bag'ishlangan bo'lib: mualliflar xalqaro migratsiyaga alohida e'tibor beriganlar lontsev, A.N. Kamenskiy, E. G. Krasinets, P.K. Vechkanov, L.A. Solonskaya (mehnat migratsiyasi); G.S. Vitkovskaya, V.I. Mukomel (majburiy migratsiya); Ledeneva L.I., I.A. Malax ("miya oqimi"); V.A. Volox, Yagodin S.B. (migratsiya siyosati); TD; Ivanova (noqonuniy, tranzit migratsiya) va boshqalar.

Migratsiya jarayoniga oid tadqiqotlar Markaziy Osiyo olimlaridan Fariza Tolesh va Svitlana Biloshchitskalar ARIMA modeli yordamida Qozog'istonda xalqaro migratsyaning pragnozini ishlab chiqqan. Bunda Qozog'iston aholisining immigratsiya va emmigratsiya jarayonlaridagi ishtiroti 2060-yilgacha pragnoz qilingan[2]. Tojikistonda aholining migrations harakatlari uning sabab va oqibatlari K.Gulmirzoev, G.Nazarova, O.Qosimov va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

O'zbekistonda aholi migratsiyasiga doir ilmiy tadqiqotlar dastlab – M.Q.Qoraxonov, M.R.Mullajonov, B.Goldfarb, B.Maxmudovlar tomonidan o'rganilgan lekin bu tadqiqotlar asosan mamlakatimiz mustaqiligigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mustaqillik davrida esa O'zbekistonda aholi migratsiyasi L.Maksakova tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Bundan tashqari aholi migratsiyasiga oid ilmiy ishlarni Q.Abdurahmonov, A.A.Qayumov, O.B.Atta-Mirzayev, A.S.Soliyev, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham ko'rish mumkin.

So'ngi yillarda D.Rasulova tomonidan ishchi kuchi migratsiyasining nazariy asoslari, D.Djunbulayev tomonidan O'zbekistonda aholi migratsiyasi va uni tartibga solishni takomillashtirish, F.Parmanovning Migratsiya jarayonlarini boshqarishda inson omili, E.Muxiddinov

GEOGRAFIYA

tomonidan aholini ish bilan taminlashda mehnat migratsiyasining o'rni va L.Isoqov tomonidan O'zbekistonda migratsiya sohasida davlat boshqaruvining tashkiliy-huquqiy asoslari mavzularida bajarilgan ilmiy ishlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, migratsiya jarayoni ancha ilgari turli olimlar tomonidan tadqiq etila boshlangan bo'lsa –da migratsiya jarayonining hududiy tarkibi mamlakatimizda haligacha yetarlicha o'rganilmagan shunday ekan tashqi migratsiya jarayonini hududiy xususiyatlarini o'rganish fikrimizcha dolzarbdir.


Ushbu maqolada statistik kuzatish, statistik guruhlash, hududiy tahlil, matematik, geografik taqqlaslash usullaridan keng foydalananilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Surxondaryo viloyatida aholining migratsion harakatlari tog' va tekislik rayonlarida katta farqlarni yuzaga keltirgan yana bir omil bu aholining demografik ko'rsatkichlari. Aholining hududiy joylashuvi ham (bu yerda tog' va tekislik nazarda tutilyabdi) demografik jarayonlarga bo'lgan munosabtga tasir etmay qolmaydi. Ayniqsa Surxondaryo viloyati milliy tarkibi ham juda boy bo'lgan hudud hisoblanadi viloyatda o'zbeklardan keyin ikkinchi eng yirik millat vakillari bu tojiklar hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida tog' oldi hududlarda va tog' oraliq daryo vodiylarida asosan tojik millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Malumki o'zbek va tojiklar boshqa millatlarga qaraganda demografik mayili yuqori hisoblanadi ushbu millat vakillarida tug'ilish ko'rsatkichi ancha yuqori bo'lib bu ham o'z navbatida hududda aholi soning tez ko'payishiga sabab bo'ladi. Ma'lumot o'nida viloyat aholsi milliy tarkibida o'zbeklar 84% va tojiklar 12,4% ni tashkil etadi.

Surxondaryo viloyatida doimiy ko'chib ketuvchilar va doimiy ko'chib keluvchilar soni unchalik ko'p emas. Bunga birinchi sabab hududda aholi milliy tarkibid tub millat vakillari (o'zbek va tojik) sonining yuqori ekanligi hisoblanadi. Viloyat bo'yicha jami 2010-yilda migratsiya saldosи -22 kishiga teng bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich yillar davomida o'zgarib 2023-yilga kelib 39 kishiga teng ekanligini ko'rish mumkin. Yuqorida qayd etilganidek viloyat aholisi doimiy ko'chib ketuvchilar kam sonli bo'lsada lekin mavsumiy yoki vaqtincha xorij mamlakatlariga borib mehnat qilib keladiganlar ulushi ancha yuqori hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati aholisining tashqi migratsiyasida viloyat tumanlarining ulushi turli darajada ekanligini quyida 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkin bo'ladi. Hududlar kesimida ko'chib kelganlar ketganlarga nisbatan yuqori bo'lgan hududlar qatoriga Termiz shahri, Termiz va Angor tumanlari kiradi. Malumki Termiz shahri uzoq yillardan buyon viloyatning mamuriy markazi vazifasini bajarib kelmoqda shuningdek ushbu shahar kattaligi va infratuzilma jihatidan ham viloyatning boshqa hududlaridan keskin farq qiladi ayniqsa so'ngi yillardagi viloyat markaziga bo'lgan etibor natijasida Termiz shahri butkul yangi qiyofaga kirdi. Termiz va Angor tumanlari ham bevosita Termiz shahriga yaqin ekanligi sababli ushbu hududlarga ham ko'chib keluvchilar soni ancha ortganligini guvohi bo'lish mumkin. Viloyatning deyarli boshqa barcha tumanlarida ko'chib ketganlar ulushi kelganlarnikidan yuqori hisoblanadi. Umuman olganda viloyatda migratsion harakatlarda faol bo'lgan hududlar qatorida Termiz shahri, Termiz, Denov, Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlari alohida ajralib turadi. Bunga sabab esa ushbu hududlarda shaharlashuv jarayoni boshqa hududlarga nisbatan yuqori ekanligi. Ma'lumki aholining migratsion harakatlarda qatnashishida shahar aholisining qishloq aholisiga nisbatan faolroq bo'lishini ko'rish mumkin. Yana bir sabab shuki ushbu hududlar aholi soni jihatidan ham viloyatning eng ko'p aholiga ega bo'lgan hududlari hisoblanadi.




1-rasm. 2024-yilda Surxondaryo viloyatida ko'chib kelganlar va ketganlarda tumanlarning ulushi.

Viloyat tashqi migratsiyasida ulushi eng kam bo'lgan tumanlar qatoriga Boysun, Oltinsoy, Muzrabod, Qizriq va yangi tashkil etilgan Bandixon tumanlari kiradi. Sababi ushbu tumanlarda aholi soni ham boshqa tumanlarga nisbatan kamchillikni tashkil etadi boshqacha aytganda ushbu tumanlar aholi soni bo'yicha viloyatning eng oxirgi o'rinda turuvchi tumanlari hisoblanadi. O'zbekiston bo'ylab xususan Surxondaryo viloyatida ham tashqi migratsiyada eng avvalo mehnat migrantlari qatnashadi, migratsiya deyilganda ko'pchillikni ko'z oldida birinchi navbatda xorijda mehnat qiluvchilar gavdalanadi. Shunday ekan Surxondaryo viloyatining yuqorida nomlari keltirilgan tumanlari aholi soni kam eknaligi ularni aholisi tashqi migratsiya qatnashish ko'rsatkichini ham kam ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizning boshqa hududlari singari Surxondaryo viloyati migratsiya saldosida ham emmigrantlar immigrantlardan ustun hisoblanadi. Buni yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin bo'ladi faqatgina Termiz shahri, Angor va Termiz tumanlarida ko'chib kelganlar ko'chib ketganlardan ko'pchillikni tashkil etadi qolgan barcha tumanlarda emmigrantlarning ustunligini ko'rish mumkin. Kelganlar va ketganlar o'rtasidagi katta tafovutni esa Termiz shahri, Termiz va Denov tumanlarida uchratish mumkin bo'ladi. Viloyatning deyarli qolgan barcha tumanlarida keluvchilar va ketuvchilar o'rtasida katta tafovut kuzatilmaydi.

GEOGRAFIYA



2-rasm. Surxondaryo viloyatidan 2023-yilda ketganlarning tumanlar kesimida malumoti.

*Izoh: Ko'chib ketuvchilar va mehnat migrantlari

Mamlakatimizning boshqa hududlari singari Surxondaryo viloyatida ham xorij va MDHning boshqa mamlakatlariiga borib mehnat qiladigan vatandoshlarimiz ancha ko'pchillikni tashkil etadi. Yuqoridaq 2-rasmida viloyat emmigrantlarining tumanlar kesimida har 1000 aholiga nisbati keltirilgan bo'lib bunda ushbu malumotlar 2023-yilda Surxondaryo viloyatidan boshqa mamlakatlarga ketgan mehnat migrantlari to'g'risida hisoblanadi.

Ko'chib ketganlarning koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$K_{im} = \frac{M_e}{S} \cdot 1000$$

Bu yerda demak K_{im} — ko'chib ketganlar koeffitsiyenti, M_e —jami ko'chib ketganlar soni, S —o'rganilayotgan davrdagi o'rtacha aholi soni va 1000—promille hisobida koeffitsiyent.

Yuqoridaq formuladan foydalanib Surxondaryo viloyatining 253eying 253ic ma'lumotlari asosida 2023-yildagi ko'chib ketganlar koeffitsiyenti hisoblaydigan bo'lsak:

$$K = \frac{124194}{2725700} \times 1000$$

Demak bu yerda 2023-yil hisobi bo'yicha viloyatdan boshqa mamlakatlarga mehnat qilish uchun ketganlar soni 124194 kishini, ushbu davrda viloyat aholisi soni esa 2725700 kishini tashkil etgan.

Surxondaryo viloyati bo'yicha o'rtacha har 1000 kishiga nisbatan ko'chib ketgan soni 45,5 kishini tashkil etar ekan. Ushbu ko'rsatkich lekin viloyatning tumanlari o'rtasida anchagina tafovutlarga ega hisoblanadi. Viloyatning tumanlarida emmigratsiyaning katta farqlarga ega ekanligi har bir hududning joylashgan o'rni, xo'jalik ixtisoslashuvi, aholisining tarkibi, aholining bandlik ko'rsatkichlari kabi omillar natijasida yuzaga keladi.

Yuqoridaq 2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki emmigratsiyaning eng yuqori ko'rsatkichlar birinchi navbatda Sariosyo 65,5 va Uzun 61,5 tumanlarida qayd etilgan undan keying o'rnlarda esa Muzrabod, Sho'rchi hamda Jarqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi. Ma'lumki ushbu tumanlarning aksariyati Surxondaryo viloyatini atrofidan chegaradosh bo'lgan qo'shni mamlakatlar bilan tutash hisoblanadi ayniqsa Sariosyo va Uzun tumanlari aholisining qo'shni Tojikistonda yaqin qarindoshlarinikiga borib kelishi kabi jarayonlar natijasida ushbu tumanlarda emmigratsiya ko'rsatkichi kattalashib ketgan bo'lsa ikkinchi tomondan aynan ushbu tumanlar

joylashgan hududga qo'shni Tojikiston respublikasining Tursunzoda shahrida joylashgan aluminiy zavodidan chiqayotgan zarali gazlarning salbiy ta'siri ham kuchli hisoblanadi buning natijasida ham ushbu tumanlar aholisi tarkibida emmigrantlar ulushi nisbatan yuqori va uchinchi omil bu ishsizlik hisoblanadi.

Viloyat hududidan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti bo'yicha eng past ko'rsatkichlarga ega tumanlar qatoriga Qumqo'rg'on, Angor tumanlari va Termiz shahri misol bo'ladi. Har 1000 kishi hisobiga nisbatan ushbu hududlarda mos ravishda 28,7 va 35,7 hamda 31,1 kishini tashkil etadi. Ushbu hududlarda ko'chib ketganlar koeffitsiyenti nisbatan past ekanligi bu hududlarda aholi soni va ish o'rnlari bilan bog'liq hisoblanadi. Qolgan hududlardan Denov, Boysun, va Termiz tumanlari viloyatning o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan yaqin.

2023-yil hisobi bo'yicha Surxondaryo viloyatidan mehnat qilish va boshqa maqsadlar xorij mamlakatlarga chiqib ketganlarning umumiyligi soni 124194 kishini tashkil etadi. Emmigrantlarning viloyat tumanlari bo'ylab ulushi yuqorida keltirilgan 2-rasm ma'lumotlarda aks etgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha viloyatning eng ko'p aholiga ega bo'lgan tumani Denov 14,4% bilan alohida ajralib turadi. Undan keying o'rnlarda Sariosiyo-11,7%, Jarqo'r'gon-9,9%, Sho'rchi-9,4% va Uzun-9% tumanlari alohida ajralib turadi. Denov, Jarqo'rg'on, Sho'rchi va Sariosiyo tumanlarida aholi soni ko'pligi bilan izohlansa Uzun tumanida yetarlicha ish o'rnlari yo'q ekanligi bilan mehnat migrantlarining ko'p ekanligini izohlash mumkin. Emmigrantlar ulushi eng kam bo'plgan tumanlar qatoriga Termiz-3%, Angor-4% va Boysun-4,3% tumanlarini kiritish mumkin. Ushbu tumanlarda emmigrantlar ulushi kam ekanligi viloyatda aholi soni bo'yicha ushbu tumanlarning hissasi unchalik katta emas. Surxondaryo viloyatida 2023-yil hisobi bo'yicha jami aholi soni 2725700 kishini va emmigrantlar soni 124194 kishini va emmigrantlar jami viloyat aholisining 4,5% ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich viloyat aholisining xorijga mehnat qilish va boshqa maqsadlar uchun turli muddatlarga ketganlarning ulushi hisoblanadi. Malumot o'rnida aytib o'tish joizki xorij mamlakatlarga mehnat qilishdan tashqari ta'lim olish uchun ham ketganlar emmigrantlar toifasiga kiritiladi. Lekin xalqaro turistlar emmigrantlar emas chunki turizmda yashash joyi o'zgarmaydi qisqa muddatga sayohat qilinadi. Migratsiyaning eng muhim shartlaridan biri bu aholining doimiy yoki vaqtincha yashash joyining o'zgarishidir.

1-jadval

Surxondaryo viloyati hududlari bo'yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni. 2023-yil.


Hududlar	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	Ulardan:		Ishsizlik darajasi, foizda
		Iqtisodiyotda bandlar	Ishsizlar	
Surxondaryo	1 091,8	1 011,2	80,6	7,4
Termiz sh.	92,6	86,9	5,7	6,1
Angor	59,6	55,3	4,3	7,2
Bandixon	23,1	21,4	1,7	7,8
Boysun	47,5	43,7	3,8	8,0
Denov	162,3	150,8	11,5	7,1
Jarqo'rg'on	91,3	84,6	6,7	7,3
Qiziriq	42,7	39,4	3,3	7,7
Qumqo'rg'on	91,3	84,4	6,9	7,6
Muzrabot	54,8	50,6	4,2	7,6
Oltinsoy	74,7	68,9	5,8	7,6
Sariosiyo	84,9	78,5	6,4	7,7
Termiz	33,1	30,5	2,6	8,1
Uzun	70,6	65,3	5,3	7,5
Sherobod	80,3	74,5	5,8	7,2
Sho'rchi	83,0	76,4	6,6	8,0

Manba: O'zbekiston statistika agentligi

GEOGRAFIYA

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda Surxondaryo viloyati aholisi tarkibida iqtisodiy faol aholi, bandlar soni va ishsizlar soni shuningdek viloyatning tumanlari kesimida ishsizlik darajasi ham berib o'tilgan. Agar ushbu jadvaldagি ishzilk darajsi va yuqoridagi 2-rasmda keltirilgan emmigrantlar koeffitsiyentini o'zaro taqqoslab ko'radian bo'lsak bu yerda ma'lum darajada bog'liqliklar mavjud ekanligini ko'rish mumkin. Viloyatning tumanlarida ishsizlik darajasi eng yuqori bo'lgan hududlar qatoriga Sho'rchi 8%, Boysun 8% va Termiz 8,1% tumanlari kiradi. Eng past ko'rsatkichlar esa Termiz shahriga to'g'ri kelib bu 6,1% ni tashkil etadi. Qolgan deyarli barcha tumanlarda ham juda past emasligini viloyatning o'rtacha ishsizlik darajasi 2023-yil hisobi bo'yicha 7,4% ni tashkil etganligidan ham bilish mumkin.

Bugungi kunda xalqaro migratsiya jarayonlari globallashib dunyoning ko'plab mamlakatlarini qamrab oldi va jahon mamlakatlarini bir-birlari bilan bog'lab turuvchi aloqalaridan biri sifatida yanada rivojlanib bormoqda. Bunday globallashuv jarayoni xususan bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmagan. Xususan O'zbekiston ham bugungi kunda jahoning ko'plab mamlakatlari bilan migratsion aloqalarga ega hisoblanadi.



3-Rasm. 2023-yilda Surxondaryo viloyati emmigrantlarining davlatlar bo'yicha tarkibi.

Izoh: doimiy ko'chib ketuvchilar va mehnat migrantlari misolida.

Tadqiqotimiz obekti hisoblangan Surxondaryo viloyati jahon mamlakatlarining 30 ga yaqini bilan migratsion aloqalarga ega. Quyida keltirilgan 3-rasmda Surxondaryo viloyatidan ketayotgan emmigrantlarning eng asosiy yo'nalishlari hisoblangan mamlakatlar keltirilgan. 2023-yil hisobi bo'yicha Surxondaryo viloyatidan xorij mamlakatlariga ketgan fuqorolarning eng katta qismi Rossiya Fedratsiyasiga to'g'ri kelmoqda jami emmigrantlarning 71,1% ni tashkil etadi. Bunga sabab esa birinchi navbatda Sobiq Ittifoqi tarkibida O'zbekistonning ham bo'lganligidir. Sobiq Ittifoq davrida Rossiya va Ittifoqning boshqa hududlaridan mamlakatimizga ko'plab aholi asosan malakaliy mutaxasislar va harbiylar ko'chirib keltirilgan. Natijada ilk mustaqillik harakatlari 1989-yilda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va keyinchalik 1991-yil kuzida rasman davlat mustaqilligining elon qilinishi rusiyabzon aholining katta-katta guruhlari o'z ona yurtlariga qaytib ketishlariga olib keldi. Lekin uzoq davom etgan Sobiq Ittifoq davrida mahalliy aholiga ham rus tili chuqur o'rgatilgan shunday ekan mahalliy aholining ham rus tili bilimlari shakllanib qolgan edi. Ayniqsa mamlakatning eng chekka janubiy darvozasi hisoblangan Surxondaryo viloyati hududiga Sobiq Ittifoq davrida boshqa hududlarga nisbatan ko'proq harbiylar olib kelib joylashtirilgan bu albatta o'sha davrda chegarani mustahkam qilishga harakat deb bilish mumkin. Natijada ushbu viloyatda o'zbek va tojiklar bilan birgalikda boshqa millat vakillari soni ham ko'paygan.

Bugungi kunda mamlakatimizdan xususan Surxondaryo viloyatidan Rossiyaga ko'p mehnat migrantlari borayotganligining sabablaridan biri ham aynan shu til omili hisoblanadi. Emmigrantlarning ko'p qismi rus tilini yaxshi biladi yoki boshlang'ich bilimlarga ega bu ularning ushbu davlatda yashab mehnat qilishlarida yordam beradi.

Viloyat aholising emmigrations yo'nalishida Rossiya Fedratsiyasidan 256keyingi o'rirlarda qo'shni mamlakat Qozog'iston va bevosita Surxondaryo viloyati bilan chegara hisoblangan Tojikiston mamlakatlari asosiy yo'nalish bo'lib hisoblanadi. Surxondaryo viloyatidan ketayotgan emmigrantlarning 17,4% i Qozog'istonga borsa 6,3% i Tojikiston mamlakatiga ketishmoqda. Butun mamlakatimiz bo'ylab ham emmigrations yo'nalishda Rossiyadan keying o'rinda Qozog'iston turadi bunga sabab esa birinchi navbatda iliq qo'shnichilik aloqasi va Qozog'istonda ish o'rirlarining ko'pligi hamdir. Surxondaryo viloyati aholisining tashqi migratsiyadagi ishtirokining ilk shakllanish tarixi ham mamlakatimizning boshqa hududlari singari birinchi navbatda Rossiya, Qozog'iston va Turkiya mamlakatlari hisoblanadi. Lekin so'ngi 10 yillikda mamlakatimiz migrationsi siyosatida bir qancha ijobjiy o'zgarishlar kuzatilib mamlakat aholisining xorijda mehnat qilishi va uning xavsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qancha hukumat tomonidan qarorlar chiqarilib amalga tadbiq etildi. Natijada mamlakatimizdagi ortiqcha ishchi kuchi uchun yangi migrationsi yo'nalishlar paydo bo'ldi bular qatoriga Koreya respublikasi, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Fors qo'lting'i arab mamlakatlari kiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnila shuni keltirish joizki, bugungi globallashuv jarayonida migrationsi jarayoni xususan tashqi migratsiya jarayoni jahon mamlakatlari o'tasida xalqaro hamkorlikning bir ko'rinishi misolida Jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bunday xalqaro hamkorlikning rivojlanishida ayniqsa aholi soni tez suratlar o'sayotgan O'zbekiston respublikasi va uning hududlar uchun ahamiyati yanada yuqori hisoblanadi. Mamlakatimiz tashqi migratsiyasida eng faol bo'lgan hududlar toifasida Surxondaryo viloyati ham aholisi o'z o'rniiga ega hisoblanadi. So'ngi yillarda Respublikamizning boshqa hududlari singari viloyat aholisi uchun ham yangi migrationsi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bular qatoriga so'ngi yillarda eng ko'p tashkillashtirilgan holda mehnat migrantlari ketayotgan Koreya respublikasi va Yevropaning ko'plab mamlakatlari bulardan ajralib turadi Germaniya, Buyuk Britaniya va Boltiqbo'y mamlakatlari kiradi. Ushbu mamlakatlarning aksariyati bilan O'zbekiston respublikasi migratsiya agentli va uning hududiy bo'limlari o'tasida ish beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkillashtiriligan holda mehnat migratsiyasini amalga oshirmoqda natijada mehnat migrantlari ko'plab qulayliklarga ega bo'lishmoqda birinchidan ish joyi va ish haqining kafolatlanganli hisoblanadi. Ikkinchidan ushbu mamlakatlarning aksariyati rivojlangan mamlakatlar bo'lganligi bois ham ish vatinig tartibga solinganligi buning natijasida mehnat migrantlari xavfsiz mehnat qilish sharoitiga ega bo'lishmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagji PQ-5205-ton qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi malumotlari
3. /// Fariza Tolesh va Svitlana Biloshchitska. Forecasting international migration in Kazakhstan using ARIMA models. The 14th International Conference on Emerging Ubiquitous Systems and Pervasive Networks. (EUSPN 2023). November 7-9, 2023, Almaty, Kazakhstan.
4. Imomova.N.A. O'zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi shakllanishining o'ziga xos xududi xususiyatlari va muommolari. ILMIY AXBOROTNOMA IQTISODIYOT 2020-yil, 2-son.
5. Soliyev A.S. Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan: "MASHRAB" nashriyoti, 2024. – 408 b.
6. Tojiyeva Z.N., Xursanov S.M., Pardayev N.S., MIGRATSIIYA JARAYONI TURLARINING TASNIFI. O'zbekiston Geografiya jamiyati axboroti 66-jild, 2024-yil.
7. Tojiyeva.Z va Omonova.K. MEHNAT MIGRATSIIYASINI TADQIQ ETISHNING HUDUDIY MASALALARI. "MILLIY IQTISODIYOTNI ISLOH QILISH VA BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari. Toshkent. 2024.
8. Zulkhumor Tojiyeva, Kamola Omanova, Nodirbek Pardayev, Nizomiddin Jaloliddinov, Bekzod Musayev and Sadriddin Khursanov. Regional Characteristics in the Dynamics and Location of the Rural Population of the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 491, 04004 (2024). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449104004>
9. Xursanov.S. Janubiy hududlar aholisi etnodemografik tarkibi va geografiyasi (Surxondaryo viloyati misolida)" Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent-2022. 88 b.
10. /// Rufei Guo, Junsen Zhang, Minghai Zhou. The demography of the great migration in China. *Journal of Development Economics*. March 2024. DOI:[10.1016/j.jdeveco.2023.103235](https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2023.103235).